

TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYAGA ASOSLANIB TALABALARDA TEXNIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH

Kata o'qituvchisi Davronova Muxayyo Usubjanovna, dotsent Abdullaev Kamolxon Hakimovich,
professor Haydarov Axmadali Qambarovich, dotsent Nishonov Botirjon Muxammadjonovich
Namangan muhandislik-qurilish instituti, O'zbekiston
E-mail: m_davronova@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada talabalarda texnik fikrlashni, tafakkurni o'stirish, har bir talabaning o'z sohasida kichik bo'lsa ham mustaqil fikr va taklif ilgari surishga erishish zarurligi asoslangan. Talabalarda texnik tafakkurni shakllantirish va o'stirishda hosil bo'lishi zarur bo'lgan bilim va tushunchalar tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil va erkin fikrlash, ta'lim jarayoni, tafakkurni o'stirish, ilmiy tortishuv, tafakkur.

Аннотация: В основу статьи положена необходимость развития технического мышления и мышления у студентов, а также необходимость выдвижения каждым студентом самостоятельных идей и предложений в своей области, пусть даже небольшой. Рекомендуются знания и понятия, необходимые для формирования и развития технического мышления у студентов.

Ключевые слова: самостоятельное и свободное мышление, учебный процесс, развитие мышления, научная дискуссия, мышление.

Annotation: The article is based on the need to develop technical thinking and thinking among students, as well as the need for each student to put forward independent ideas and proposals in their field, even if small. The knowledge and concepts necessary for the formation and development of technical thinking among students are recommended.

Key words: Independent and free thinking, educational process, development of thinking, scientific discussion, thinking.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir katta tajriba to'plangan bo'lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda.[1] Oliy o'quv yurtida ma'ruzalar, seminar va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishga yangicha yondashish, har bir mashg'ulotlarda talabaning izlanuvchanligini rag'batlantirish, mustaqil va erkin fikrlashga imkoniyat yaratish, ta'lim jarayonida munozara, ilmiy tortishuv, nuqtai nazarlarning turli tumanligini qo'llab quvvatlash g'oyasi ilgari surilmoqda. Talabalarida texnik fikrlashni, tafakkurni o'stirish, har bir talabaning o'z sohasida kichik bo'lsa ham mustaqil fikr va taklif ilgari surishga erishish zarur. Talabalarda texnik tafakkurni shakllantirish va o'stirishda hosil bo'lishi zarur bo'lgan bilim va tushunchalar:

- bilimlarni o'zlashtirishda aktiv jarayon
- bilimlarni o'zlashtirishda avvalgi bilim va tajribalarni roli
- bilishda sezish, idrok, xotira, tafakkurni rolini tushunish
- tanqidiy fikrlash-hozirgi zamon mutaxassisiga zarur bo'lgan sifat
- dars jarayonida, mustaqil ishlashda talaba fikrlashga o'rganish
- fikrlash qobiliyati o'sgan mutaxassis mustaqil o'qiydi va muommalarni echishda faollik ko'rsatadi.

Ta'lim jarayoni juda murakkab bo'lib, unda o'qituvchi va talabaning xamkorlikda faoliyat ko'rsatishi talab etilmoqda. O'qituvchi zamon talabalariga mos shaklda fan bo'yicha dasturda ko'rsatilgan bilimlarning mazmunini va mohiyatini talabaga etkazadi. Talaba faollik bilan bilimlarni o'zlashtirishlari zarur. Bu jarayonga talabaning hayotiy tajribasi, mavjud bilimlari, bayon etilayotgan bilimlar tizimiga, fanga, o'qishga munosabati ta'sir etadi. Bu sohada talabalarining imkoniyati bir xil bo'lmaydi. Keng bilimga, boy hayotiy tajribaga ega, o'qish ko'nikmalarini o'zlashtirgan talabalar o'qishda muvaffaqiyat bilan ishlaydi. Bilimlarni

o'zlashtirishga talabning avval o'zlashtirgan ta'limiy ko'nikma va malakalari ta'sir etadi. Agarda talabada bilimlar qanchalik keng bo'lsa, yangi informatsiyani qabul etishi oson bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchi yangi mavzuni boshlaganda ayniqsa ma'ruza darslarida talabalarni qiziqtiradigan savollar qo'yishi, muommoli vaziyatlar yaratilishi, aqliy hujumni qo'llashi, ularda darsga qiziqishini kuchaytiradi, kritik fikrlashini o'stiradi, tafakkurini shakllantiradi. Shaxsda tafakkur rivojlanmasa, shaxs o'ylashga o'rganmasa o'zidagi mavjud bilimlardan foydalana olmaydi. Masalan: tadbirkor shaxsda tafakkur rivojlangan bo'ladi. Tafakkur - shaxsning ma'lum muammo haqida o'ylashi, fikr yuritishi tushuniladi. Tafakkur doimo keng va chuqur bilimlarga asoslanadi. Ta'lim jarayonini barcha bosqichida (darsning kirish qismida, ma'ruza, amaliy mashg'ulot, mustaqil ishlarda) talabani fikr yuritishga majbur etadigan topshiriqlarni taklif etish zarur. Texnika oliy o'quv yurtlarining talabalarida texnik qonun va qoidalarni tushunish jarayonida tafakkur shakllanadi va rivojlanadi. Texnik tafakkur ko'proq nazariy tafakkurni talab etadi. Texnik tafakkurni o'stirish yo'llari atroflicha o'rganilishi zarur. Tashqi dunyo ta'surotlarini inson ongiga o'rnashishi, saqlanishi va keyinchalik qayta tiklanishi xotira xisoblanadi. Xotiraning har bir bosqichiga ta'lim jarayonida katta e'tibor berish kerak. Asosiy e'tiborni esda olib qolish bosqichiga qaratish foydalidir. Masalan: har bir shaxs hayotida muhim sanalarni – quvonchli va qayg'uli kunlarni doimo uzoq vaqt esda saqlanib qoladi chunki bunday tantanali (ayrim qayg'uli kunlar) inson shaxsiga kuchli ta'sir etadi va xotiraga qattiq o'rnashib qoladi. Xotiraning bu xususiyatidan foydalanib, o'quvchiga etkaziladigan materialni hayotiy, bir voqeaga bog'lab qiziqarli, ilmiy ahamiyati tushuntirilishi, muommoli vaziyatlarni yaratilishi, AKT lardan foydalanib o'tilishiga e'tibor berish zarur. Texnika oliy o'quv yurti o'qituvchilari talabalariga puxta bilim berish bilan cheklanmay, talabani shu soxada o'ylashga, fikr yuritishga o'rganishi kerak. Bunda turli maket, qurilmalar, konstruktorlik ishlari, to'garaklar, amaliy va tajriba darslarida yo'nalishi bo'yicha korxonalariga ekskursiyalarga olib borish zarur.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, ta'lim jarayonida talaba avvalo, o'z ustida ko'proq ishlashi, bilimlarni puxta o'zlashtirishi ularni amalda qo'llashi zarur. Agarda faqat mavjud bilimlarni bilan cheklanib qolmasdan, doimo fikrlashga o'rgansa, u rivojlanadi, jahon standart talablariga mos keladigan raqobatbardosh mutaxassis bo'lishiga zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Интерфаол методлар: моҳияти ва қўлланилиши / Методик қўлланма. Д.Рўзиева, М.Усмонбоева, З.Ҳолиқова. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ нашриёти, 2013. – 136 бет.
- 2.Н.Х.Хўжаев, Ходиев Б.Ю. “Янги педагогик технологиялар” Тошкент,Фан.2002 йил.
- 3.Usubjanovna, D. M., & Sharifjanovna,Q. M. (2023). The effectiveness of using morphological study method in teaching specialized subjects. International journal of research in commerce, it, engineering and social sciences ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 17(01), 22-27.
- 4.Usubjanovna, D. M. (2022). Aspects of methods and forms of teaching technical subjects. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(2), 743-747.
5. Sharipovich, K. S., Yusufjonovich, K. B., & Yakubjanovich, H. U. (2021). Innovative Technologies In The Formation Of Professional Skills And Abilities Of Students Of Technical Universities. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 27(1), 142-144.